

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT
SIYOSATI VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.04/2025.27.12.S.01.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

XODJAYEV SOBIR DJUMAYEVICH

**O‘ZBEKISTONDA O‘ZGARISHLAR SHAROITIDA KEKSALARNING
IJTIMOIY FAOLLIGI: SOTSIOGERONTOLOGIK TAHLIL**

22.00.02 – Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi

**Sotsiologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Sotsiologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc)
социологических наук**

**Contents of the abstract of the Doctor of Science (DSc) dissertation in
Sociological Sciences**

Xodjayev Sobir Djumayevich

О‘zbekistonda o‘zgarishlar sharoitida keksalarning ijtimoiy faolligi:
sotsiogerontologik tahlil.....3

Ходжаев Собир Джумаевич

Социальная активность пожилых людей в условиях перемен в Узбекистане:
социogerontологический анализ.....27

Khodjaev Sobir Djumaevich

The Social Activity of Older Persons in Uzbekistan under Conditions of Change: A
Sociogerontological Analysis.....57

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works61

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT
SIYOSATI VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.04/2025.27.12.S.01.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

XODJAYEV SOBIR DJUMAYEVICH

**O‘ZBEKISTONDA O‘ZGARISHLAR SHAROITIDA KEKSALARNING
IJTIMOIY FAOLLIGI: SOTSIOGERONTOLOGIK TAHLIL**

22.00.02 – Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi

**Sotsiologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Sotsiologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2024.3.DSc/S32 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida
(www.fs-ik.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Sodiqova Shohida Marxaboyevna
sotsiologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Shoumarov G'ayrat Baxromovich
akademik, psixologiya fanlari doktori, professor

Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich
falsafa fanlari doktori, professor

Seitov Azamat Pulatovich
sotsiologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot

**“Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini
o'rganish markazi**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/2025.27.12.S.01.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil «18» avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 45-uy. Tel.: (71) 267-05-36, faks: (71) 232-60-47 E-mail: info@dba.uz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi ma'muriy binosi 2 - qavat, 220- xona.

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (386-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 45-uy. Tel.: (71) 267-05-36, faks: (71) 232-60-47, E-mail: info@dba.uz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi ma'muriy binosi 2- qavat, 203- xona.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «4» avgust kuni tarqatiladi.
(2026-yil «4» avgustdagi 04/08 raqamli reyestr bayonnomasi).

M.B. Bekmuradov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, sotsiologiya fanlari doktori,
professor

B.X. Karimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, sotsiologiya fanlari doktori,
professor

T.M. Matibayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
sotsiologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo aholisining keksayishi barqaror demografik yo‘nalishga aylanib, har bir mamlakatning sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar tizimini yangicha sharoitga moslashtirishni talab etmoqda. Ma‘lumotlariga ko‘ra, “2015–2050-yillarda 60 yosh va undan katta yoshdagilar ulushi dunyo aholisi 12 foizdan 22 foizgacha o‘sadi, 2050-yilga kelib 60 va undan katta aholi soni 2,1 mlrdga yetadi, ularning kamida uchdan ikki qismi kam daromadli mamlakatlarda yashaydi”¹. Aholi yosh tarkibida bu o‘zgarishlar keksa avlodning sog‘lom va faol hayot kechirishi, ularning jamiyatdagi ishtiroki va xavfsizligi ustuvor vazifa sifatida ko‘rilmoqda. Shu nuqtai nazardan, xalqaro darajada qabul qilingan qator hujjat va dasturlar, shuningdek, keksalik bo‘yicha global yo‘nalishlar, keksalarga mos muhit yaratish, uzoq muddatli parvarishni qo‘llab-quvvatlash kabi tayanch vazifalar dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahonning yetakchi universitetlari, ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan keksa avlod hayoti sifatini oshirishga qaratilgan ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada keksa avlod va rivojlanish, qarilikda sog‘liq va farovonlik, quvvatlantiruvchi muhit, sog‘lom keksayish, eydjizimga qarshi kurash, keksaga mos jamoalarni rivojlantirish, insonga yo‘naltirilgan integratsiyalashgan tibbiy yordamni kuchaytirish, sifatli uzoq muddatli parvarish tizimini ta‘minlash, faol keksayishni baholashning muhim instrumenti sifatida faol keksayish indeksi, keksalarning mehnat bozoridagi ishtiroki, jamoat va ixtiyoriy faoliyatdagi faolligi, uy-ro‘zg‘or va norasmiy parvarishdagi hissasi, shuningdek mustaqil va xavfsiz hayot kechirish imkoniyatlarini kompleks tarzda o‘rganish, gender kesimida keksalarga oid qarorlarni aniq maqsadli yo‘naltirish va resurslarni manzilli taqsimlash kabi ustuvor yo‘nalishlarni tadqiq etishni ilgari surmoqda.

Mamlakatimizda keksa aholi ulushining o‘sib borishi bilan ijtimoiy xizmatlar infratuzilmasi, sog‘liqni saqlash tizimi va keksalarga mos muhitni rivojlantirishga e‘tibor qaratilmoqda. “Nuroniylar, yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan insonlar, alohida e‘tiborga muhtoj aholi qatlamiga ijtimoiy xizmatlar ko‘lamini yanada kengaytiramiz. Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar miqdorini muntazam oshirib boramiz”². Bu keksa avlod uchun ijtimoiy xizmatlar, sog‘liqni saqlash va parvarish infratuzilmasini muvofiqlashtirish, keksalarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish, bilim va tajribasini ijtimoiy hayotga jalb etishga qaratilgan. Shu bilan birga, milliy sharoitga mos indikatorlar tizimi va monitoring amaliyotini shakllantirish, xususan, faol keksayish indeksining metodologik yondashuvlarini lokallashtirish, ushbu tizimni yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan sotsiologik tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi PF-81-son “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son farmonlari, 2022-yil 15-martdagi PQ-167-son “Keksa avlod vakillarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va turmush

¹ Ageing and health. <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/ageing-and-health>

² Yangilangan Konstitutsiyani hayotga joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar muhokama qilindi. <https://president.uz/oz/lists/view/6275>

darajasini oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2023-yil 11-martdagi PQ-92-son "Keksa avlod vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda ularning ijtimoiy faolligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2023-yil 27-dekabrda PQ-410-son "O'zgaralar parvarishiga muhtoj keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ilmiy tadqiqotlari dasturining ustuvor yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi³.

Xalqaro miqyosda keksalarning ijtimoiy faolligi, "faol keksayish" konsepsiyasi va keksa avlodning jamiyat hayotidagi ishtiroki bo'yicha ilmiy tadqiqotlar keng ko'lamda olib borilmoqda. Bu jarayonda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO), BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi (UNECE), Yevropa Komissiyasining birlashgan tadqiqot markazi (JRC), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), shuningdek, universitet va ilmiy markazlar, xususan, Sautgempton universiteti (Angliya) qoshidagi Keksayish bo'yicha tadqiqot markazi (Centre for Research on Ageing), Italiyadagi Keksalar uchun Milliy davolash va parvarish instituti (INRCA, IRCCS), Germaniyada Keksalar tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi (BAGSO), Yaponiyada esa keksalarni mehnatga jalb etish bo'yicha Keksalar mehnat resurslari markazlari (Silver Human Resource Centers - SHRC) va Keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va ish qidiruvchilar bandligini qo'llab-quvvatlash agentligi (Japan Organization for Employment of the Elderly, Persons with Disabilities and Job Seekers - JEED) faol o'rin tutmoqda.

Keksalarning ijtimoiy faolligiga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator ilmiy natijalar, jumladan, quyidagilar olingan: "faol keksayish" doirasida keksa avlod hayot sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan: sog'liq, ishtirok va xavfsizlikni qo'llab-quvvatlovchi dasturlar ishlab chiqilgan (JSST); faol keksayish indeksi mamlakatlar kesimida keksalarning bandligi, ixtiyoriy mehnat, jamoat ishlarida ishtiroki, norasmiy parvarish, fuqarolik faolligi va mustaqil hayot kabi yo'nalishlar indikatorlar tizimi orqali baholangan (UNECE/JRC); keksa avlodda ixtiyoriy mehnat va jamoat faolligi, ruhiy-jismoniy salomatlik, kognitiv funksiyalar va umumiy farovonlik ko'rsatkichlarining yaxshilanishi, keksalarga mos infratuzilma, transport, ijtimoiy xizmatlar va jamoaviy muhitni rivojlantirish

³ Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi quyidagi manbalar asosida amalga oshirildi: World Health Organization. Active ageing: A policy framework. – Geneva: WHO, 2002. – URL: <https://iris.who.int/handle/10665/67215>; United Nations Economic Commission for Europe. Active Ageing Index. – URL: <https://unece.org/population/active-ageing-index>; Zaidi A. Active Ageing Index: A legacy of the 2012 European Year of Active Ageing and Solidarity between Generations. – Riga, 2019. – URL: https://joint-research-centre.ec.europa.eu/system/files/2019-03/3_zaidi_feb11_2019_active_ageing_index_0.pdf; OECD. Working Better with Age. – Paris: OECD Publishing. – URL: https://www.oecd.org/en/publications/working-better-with-age_c4d4f66a-en.html; BAGSO. BAGSO – The voice of older people in Germany. – URL: <https://www.bagso.de/english/>; Japan Organization for Employment of the Elderly, Persons with Disabilities and Job Seekers. Human Resources Development Services. – URL: https://www.jeed.go.jp/english/human_resources/index.html.

ularning ijtimoiy ishtiroki, salomatligi va umumiy farovonligini yaxshilashi aniqlangan (JSST/UNECE); keksalar bandligini oshirishga yo'naltirilgan ish joylarini moslashtirish, diskriminatsiyani kamaytirish, qayta tayyorlash, malaka oshirish va uzluksiz ta'lim kurslari ishlab chiqilgan (OECD); keksalar uchun mehnat resurslari markazlari (SHRC) keksalarni qisman va yengil mehnat orqali jamiyat hayotiga qayta jalb etish va "qadr" hissini mustahkamlashda model sifatida qayd etilgan (JEED); keksa avlod huquq va manfaatlarini himoya qilish, ixtiyoriylik va "keksa-yosh" mentorlik tarmoqlarini kengaytirish orqali ishtiroki rag'batlantirilgan (BAGSO).

Dunyoda keksalarning ijtimoiy faolligiga oid tadqiqotlar quyidagi ustuvor yo'nalishlarda olib borilmoqda: keksalarning ijtimoiy faolligini baholash indikatorlari va metodologiyasini takomillashtirish; keksa avlodning ixtiyoriy mehnat, fuqarolik faolligi va jamoatchilik hayotidagi ishtirokini o'rganish; keksalar uchun qulay jamoalar, ijtimoiy xizmatlar, transport, raqamli xizmatlar va infratuzilmani rivojlantirish; keksalarni qayta tayyorlash, moslashtirilgan mehnat, avlodlararo hamkorlik va mentorlik dasturlarini rivojlantirish; keksalarning ijtimoiy faollik darajasini hududiy, gender va ijtimoiy-demografik kesimlarda tahlil qilish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Keksalik va qarish masalalari inson tafakkuri tarixi davomida turli davr olimlarini qiziqtirib kelgan.

Sharq ijtimoiy-falsafiy tafakkurida ham keksalik, avlodlar vorisligi va hayotiy tajribaning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni alohida e'tirof etilgan. Jumladan, Abu Nasr Forobiy "Fozil shahar aholisi" asarida jamiyatda turli avlodlar, xususan yoshlar va keksalar o'rtasidagi ma'naviy-axloqiy uyg'unlikni ijtimoiy barqarorlikning muhim omili sifatida talqin etgan⁴. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig"da keksalarning donishmandligi, hayotiy tajribasi va maslahatgo'ylik salohiyatini davlat boshqaruvi hamda ijtimoiy tartibni ta'minlashda muhim qadriyat sifatida baholagan⁵. Ibn Xaldun esa "Muqaddima" asarida avlodlar almashinuvi, ijtimoiy tajriba va tarixiy taraqqiyot jarayonlarini tahlil qilar ekan, qarish va keksalikning jamiyat hayotidagi nazariy-ijtimoiy ahamiyatini asoslab bergan⁶.

G'arb klassik olimlari T. Mor, T. Kompanella, I. Kant va G. Gegel ijtimoiy taraqqiyotning falsafiy modellarini ishlab chiqib⁷, keksalarning ma'naviy kapital sifatidagi ahamiyatini ta'kidlagan. XX asrda keksalik sotsiologiyasida ilk nazariy yondashuvlar shakllandi: E. Kamming va U. Henrining "disengagement nazariyasi" keksalarning ijtimoiy rollardan chekinishi tabiiy jarayon ekanini asoslasi⁸, R. Havighurstning "faoliyat nazariyasi" ijtimoiy faollikni saqlash keksalarning hayot sifati uchun zarurligini isbotladi⁹. Keyinchalik R. Atchlining "kontinuitet nazariyasi" (uzluksizlik nazariyasi) hayot tarzidagi uzluksizlik keksalarning ijtimoiy

⁴ Форобий, Абу Наср. Фозил шаҳар аҳолиси ҳақида. – Тошкент: Фан, 1993. – 220 б

⁵ Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг: Текст ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф / нашрга тайёрл. Қ. Каримов. – Т.: Фан, 1971. – 965 б.

⁶ Ибн-Халдун. Введение (фрагменты) / пер. с араб. С. М. Бациевой // Избранные произведения мыслителей стран Ближнего и Среднего Востока. IX–XIV вв. – М., 1961. – С. 559–628.

⁷ More, Thomas. Utopia - Cambridge University Press, 2016.; Campanella, Tommaso. The City of the Sun: A Poetical University of California Press, 1981. - 152 p.; Kant, I. Anthropology from a Pragmatic Point of View. Cambridge University Press, 2006. - 246 p.; Кант И. Сочинения в 6-ти т. – М.: Мысль, 1966.

⁸ Cumming E., Henry W.E. Growing old: the process of disengagement. – New York: Basic Books, 1961. – 293 p.

⁹ Havighurst R. J. Successful aging. – The Gerontologist, 1961. – №1. – P. 8–13.

moslashuvini yengillashtirishini ko'rsatdi¹⁰. Shu bilan birga, J. Rou va R. Kanning "muvaqqiyatli keksayish" konsepsiyasi sog'liq, kognitiv qobiliyat va ijtimoiy ishtirok uyg'unligini ta'kidladi¹¹. Zamonaviy sotsiogerontologiyada A. Zaidi va hammualliflar ishlab chiqqan Faol keksayish indeksi - Active Ageing Index (AAI) indikatorlari keksalarning mehnat bozoridagi ishtiroki, volontyorlik faoliyati, jamoat ishlaridagi ishtiroki va uy-xo'jalikdagi roliga asoslangan¹². Shuningdek, G. Tornstanning "gerontranssendentlik nazariyasi"¹³ va V. Bengtson hamda O. Oyama ishlab chiqqan "avlodlararo birdamlik" nazariyasi¹⁴ keksalarning ma'naviy o'sish, oilaviy va jamoaviy rolini chuqur tahlil qiladi. MDH olimlari ham ushbu masalaga e'tibor qaratishgan. Jumladan, R. Bekkin, T. Vaxitov, A. Ignatenko, I. Mavlyautdinov asarlarida din va madaniyatning keksalar hayotidagi roli o'rganilgan¹⁵.

Mamlakatimizda esa M. Bekmurodov, N. Aliqoriev, A. Umarov, R.T. Ubaydullayeva, M. Ganiyeva, T. Matibayev, O. Ota-Mirzayev, Sh. Sodiqova, B. Farfiyev, X. Husanova va boshqa mahalliy olimlar¹⁶ keksalarning ijtimoiy faolligi, madaniy va ma'naviy salohiyati hamda mahalla tizimidagi ishtiroki haqida tadqiqotlar olib borganlar.

So'nggi yillarda mamlakatimizda o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlarda keksa avlodning demografik ulushi, turmush sifati, ijtimoiy yolg'izlik holati, salomatligi hamda ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyoji yuzasidan muhim empirik ma'lumotlar taqdim etilgan bo'lsa-da, ushbu tadqiqotlarda keksalarning ijtimoiy faolligi masalasi sotsiogerontologik yondashuv asosida yetarlicha tizimli tadqiq etilmagan. Shu sababli mazkur dissertatsiya keksa avlodning ijtimoiy faolligini milliy va xalqaro tajribalar negizida kompleks o'rganishga qaratilgan.

¹⁰ Atchley R.C. Continuity and adaptation in aging: creating positive experiences. – Baltimore, MD: Johns Hopkins Univ. Press, 2001. – 232 p.

¹¹ Rowe J. W., Kahn R. L. Successful Aging. – The Gerontologist, 1997. – №37. – P. 433–440.

¹² Zaidi A., Gasior K., Hofmarcher M. M., Lelkes O., Marin B., Rodrigues R., Schmidt A., Zólyomi E. Active Ageing Index 2012: Concept, Methodology and Final Results. – Vienna: European Centre for Social Welfare Policy and Research, 2013. – 76 p.

¹³ Tornstam L. Gerotranscendence: a developmental theory of positive aging. – New York: Springer, 2005. – 244 p.

¹⁴ Bengtson V.L., Oyama P.S. Intergenerational solidarity // Annual Review of Gerontology and Geriatrics. – 2007.

¹⁵ Bekkin R. The Concept of "Traditional Islam" in Modern Islamic Discourse in Russia. – Sarajevo: Center for Advanced Studies, 2020. – 291 p.; Вахитов Т. Нетрадиционный ислам // Звезда Поволжья. – 2001. № 21.; Игнатенко, А. А. Ислам и политика: сборник статей. – М.: Новое издательство, 2004. – 350 с.; Мавляутдинов И. Трудовая этика ислама в Татарстане // Россия и мусульманский мир. – 2010. – № 5 (215). – С. 47–51.

¹⁶ Бекмуродов М.Б. Замонавий бошқарув социологияси. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2020. – 436 б.; Бекмуродов М. Б. Ўзбекистонда жамоатчилик фикри. – Тошкент: Фан, 1999. – 244 б.; Алиқориев Н.С., Ubaydullaeva P.T va бошқалар. Умумий социология: ўқув қўлланма. – Т.: Университет, 1999. – 205 б.; Умаров А. А. Ижтимоий-маданий тараққиётни таъминлаш ва комил инсонни шакллантиришда мутолаанинг роли: автореф. дис. ... докт. социол. наук. Тошкент, 2005. – 56 б.; Unaydullayeva R.T. Keksalik davrining ilmiy tavsiflanishida etnometodologik yondashuv // Социология: республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент: НУУз, 2023. Б. 24.; Ганиева М. Х. Общественное мнение как фактор развития межнациональных отношений в Узбекистане. – Ташкент: Университет, 2006. 168 с.; Матибаев Т.Б. Ижтимоий ҳамкорлик ва демократия: давлат ва жамият ҳаётининг барқарор тараққиёт йўлида: монография. Тошкент: "Билим ва интеллектуал салоҳият", 2019. – 123 б.; Ubaydullaeva P.A., Ata-Mirzaev O.B., Ганиева М.Х., Карамян М.Х. Современная идентичность узбекистанцев. – Ташкент: Ижтимоий фикр, 2017. –148 с.; Содикова Ш. М. Жамиятни модернизациялаш жараёнида кексаларни ижтимоий ҳимоялашнинг социологик таҳлили: социология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган докторлик диссертацияси автореферати: 22.00.02. – Тошкент, 2016. – 62 б.; Фарфиев Б.А. Ўзбекистон ижтимоий тараққиётида ислом рационализи омили: монография. — Тошкент: "Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти" нашриёти, 2019.; Хусанова Х. Институциональные основы социальной защиты нуждающихся слоёв населения // Общество и инновации. — 2021. — Т. 2, № 2. - С. 302–310.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim tashkiloti ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Jamiyat barqaror taraqqiyoti sharoitlarida sotsial jarayonlar va hodisalar tadqiqoti" mavzuidagi ilmiy tadqiqot ishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston sharoitida keksalarning ijtimoiy faolligini sotsiogerontologik nuqtai nazardan tahlil qilish, ushbu faollikni baholash uchun indikatorlar tizimini ishlab chiqish hamda keksa avlod ishtirokini oshirishga oid ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar tayyorlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

keksalik, qarilik, "faol keksayish" va "keksalarning ijtimoiy faolligi" tushunchalarini sotsiogerontologik yondashuv asosida tahlil qilish hamda ularning operatsional mazmunini aniqlashtirish;

keksalarning ijtimoiy faolligiga oid xalqaro konsepsiyalar, metodologiyalar, xorijiy tajribalar va milliy normativ-huquqiy bazani qiyosiy tahlil qilish;

O'zbekistonda keksalar ijtimoiy faolligining demografik, hududiy, gender, ta'lim va raqamli tengsizlik omillari bilan bog'liq xususiyatlarini statistik va empirik ma'lumotlar asosida ochib berish;

keksalarning ijtimoiy faolligini baholashga xizmat qiluvchi milliy indikatorlar tizimi va kompozit indeks modelining metodologik asoslarini ishlab chiqish;

mahalla, "Nuroni" tizimi, NNTlar, volontyorlik tarmoqlari va xizmat ko'rsatuvchi tuzilmalar hamkorligi asosida "keksaga mos jamoa" modelini ishlab chiqish va uni ilmiy asoslash;

keksalar ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan pilot intervensiyalar va monitoring-baholash mexanizmlari bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyektini O'zbekistonda o'zgarishlar sharoitida keksalarning ijtimoiy faolligi tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti keksalarning ijtimoiy faolligi bilan bog'liq jarayonlar, munosabatlar, institutsional muhit va mexanizmlarining sotsiogerontologik tahlili hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tizimli, tarixiy-nazariy va qiyosiy tahlil; normativ-huquqiy hujjatlar kontent-tahlili, sotsiologik so'rov, rasmiy statistika va empirik ma'lumotlarning miqdoriy tahlili metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jamiyatda keksalarning faol ishtirokini ta'minlaydigan bandlik, ishtirok, mustaqil, sog'lom va xavfsiz hayot, shart-sharoitlarni o'z ichiga oluvchi "faol keksayish indeksi" ishlab chiqilgan.

institutsional hamkorlik modelida mahalla, nodavlat notijorat tashkilotlari va xizmat ko'rsatuvchi tuzilmalar o'rtasida keksa avlod ishtirokini oshirishga xizmat qiladigan institutsional dizayn ishlab chiqilgan, ushbu dizayn doirasida jarayonlar subyektlarining rollari, xizmatlar zanjiri va o'zaro muvofiqlashtirish mexanizmi aniqlangan;

O'zbekistonda keksalarning ijtimoiy faolligini baholaydigan milliy indikatorlar tizimi (iqtisodiy (bandlik), jamoat/volontyorlik, norasmiy parvarish, madaniy-ijtimoiy hamda raqamli ishtirok) ishlab chiqilgan, mustaqil hayot ko'rsatkichlarini o'z ichiga olgan holda lokallashtirilgan;

keksalarning ijtimoiy faolligi va raqamli tengsizlikka ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlar shahar va qishloq, gender hamda ta'lim kesimlari bo'yicha empirik tahlil qilingan, ijtimoiy va raqamli barqarorlikka qaratilgan indikatorlar tizimi nazariy va metodologik jihatdan sotsiologik asoslantirilgan;

amaldagi strategik hujjatlar (keksa avlodni qo'llab-quvvatlashga oid farmon va qarorlar) qiyosiy tahlil qilingan, faoliyat ko'rsatkichlarini natija va ta'sir ko'rsatkichlari bilan to'ldirish, shu jumladan raqamli inklyuziya va avlodlararo birdamlik indikatorlarini joriy etish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqilgan;

keksalar mentorligi, qayta tayyorlash/moslashtirilgan mehnat, raqamli savodxonlik kurslari kabi pilot intervensiyalar uchun amaliy model ishlab chiqilgan, ularni joriy etishning maqsadli (ma'lumot oqimi va hisobdorlik tartibi ko'rsatilgan monitoring-baholash sxemasi) xaritasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilarda namoyon bo'ldi:

keksalarning ijtimoiy faolligi bilan boshqa sotsial institutlar (mahalla, "Nuroni", "Keksalar maslahati" Kengashlari, "Buvijonlar maktabi", NNTlar, ijtimoiy xizmatlar, mehnat bozori, ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalari) o'rtasidagi mustahkam aloqa va o'zaro hamkorlik tizimli tarzda asoslandi;

"faol keksayish" va keksa avlodning ijtimoiy ishtirokini qo'llab-quvvatlash tamoyillari zamonaviy O'zbekiston taraqqiyotining muhim ijtimoiy-ma'naviy omili ekanligi, jumladan jamoat birdamligi va avlodlararo hamjihatlikni kuchaytirishdagi o'rni ochib berildi;

keksalarning ijtimoiy faolligi mintaqaviy qiyosiy tahlil asosida o'rganilib, shahar-qishloq, gender va ta'lim darajasi kesimidagi farqlar aniqlandi;

jamoat ongida "faol keksayish" qadriyatlari va zamonaviy faollik shakllarining aks etish darajasi empirik asosda ko'rsatildi;

jamiyatimizda kechayotgan stratifikatsiya jarayonlari (daromad, ta'lim, infratuzilma va ayniqsa raqamli tengsizlik) keksalar ishtirokini shakllantiruvchi asosiy determinantlar ekani ko'rsatib berildi; keksa avlodning ijtimoiy kapitali, volontyorlik va "keksa-yosh" mentorligi salohiyatidan unumli foydalanish ijtimoiy muammolarni yumshatishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga xizmat qilishi nazariy va amaliy jihatdan asoslandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning tadqiqot maqsadi va vazifalariga muvofiqligi, uning doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlar tarixiy, mumtoz va rasmiy manbalardan olingani, shuningdek rasmiy normativ-huquqiy hujjatlar hamda ishonchli statistik ma'lumotlarga tayanilgani, keksa yoshdagi aholining turli qatlamlarini (shahar-qishloq, gender, ta'lim va h.k.) qamrab olgan reprezentativ tanlovga asoslangan sotsiologik so'rov natijalariga asoslangani, hujjatlarni va kontentni tizimli va qiyosiy tahlil qilish bilan triangulyatsiya amalga oshirilgani, qo'llanilgan tushuncha va indikatorlar xalqaro indekslar mantig'i bilan muvofiqlashtirilgan holda operatsionallashtirilgani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot davomida olingan natijalar keksalar va qarish muammolarini sotsiogerontologik nuqtai nazardan kompleks o'rganishga xizmat qiladi. Ushbu natijalar sotsiologiya, ijtimoiy ish, demografiya, ijtimoiy siyosat va gerontologiya bo'yicha maxsus ilmiy ishlar,

o'quv-uslubiy qo'llanmalar hamda metodik tavsiyalarda manba sifatida foydalanilishi mumkin.

Keksalarning ijtimoiy faolligini baholash uchun ishlab chiqilgan milliy indikatorlar va kompozit indeksni hududiy rejalashtirish, monitoring va tahlilda qo'llash; keksaga mos jamoalarni shakllantirishda mahalla, jamoat tuzilmalari va NNTlar o'rtasidagi hamkorlikni tashkil etish bo'yicha amaliy model va yo'l-yo'riqlardan foydalanish; sotsiologik tadqiqotlar (masalan, "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik markazi kabi tuzilmalar)da so'rovnomalar shakllari, ekspert intervyu va fokus-guruh ssenariylarini tayyor shablon sifatida qo'llash; oliy ta'limda "Sotsiologiya", "Ijtimoiy ish", "Ijtimoiy gerontologiya", "Demografiya", "Ijtimoiy siyosat" fanlari uchun modul va mavzularni takomillashtirish, o'quv-ma'ruza materiallarini boyitish; axborot-ma'rifiy tadbirlarda keksalarning ishtirokini oshirish, ixtiyoriy mehnat va "keksa-yosh" mentorligini rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy tavsiyalardan foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. "O'zbekistonda o'zgarishlar sharoitida keksalarning ijtimoiy faolligi: sotsiogerontologik tahlil" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi bo'yicha ishlab chiqilgan nazariy va amaliy sotsiologik taklif hamda tavsiyalar asosida:

jamiyatda keksalarning faol ishtirokini ta'minlaydigan bandlik, ishtirok, mustaqil, sog'lom va xavfsiz hayot, shart-sharoitlarni o'z ichiga oluvchi "faol keksayish" indeksi ishlab chiqilganligi va O'zbekistonda keksalarning ijtimoiy faolligini baholaydigan milliy indikatorlar tizimi (iqtisodiy (bandlik), jamoat/volontyorlik, norasmiy parvarish, madaniy-ijtimoiy hamda raqamli ishtirok) ishlab chiqilgan, mustaqil hayot ko'rsatkichlarini o'z ichiga olgan holda lokallashtirilganligi bo'yicha takliflaridan 2023-yilda O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi huzuridagi Oila va xotin-qizlar instituti bilan BMT Aholishunoslik jamg'armasining O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikdagi tadqiqotining metodologiyasini ishlab chiqishda va uni o'tkazishda foydalanildi (O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasining 2025-yil 13-oktabrdagi 02-03/1530-son ma'lumotnomasi). Natijada O'zbekiston Respublikasida keksalarning sog'lom va faol keksayish indeksining 2-domeni - jamiyat hayotida ishtirok etish yo'nalishining 2.3.2 va 2.3.3-savollari, 3-domeni - mustaqil, sog'lom va xavfsiz yo'nalishining 3.2.1 va 3.2.2-savollari, 4-domen - faol keksayish uchun qulay muhit va sharoitlar yo'nalishining 4.2.2 va 4.2.3 hamda 4.2.4-savol indikatorlari bilan boyitildi, tadqiqot metodologiyasi va instrumentariyasi takomillashtirildi.

institutsional hamkorlik modelida mahalla, nodavlat notijorat tashkilotlari va xizmat ko'rsatuvchi tuzilmalar o'rtasida keksa avlod ishtirokini oshirishga xizmat qiladigan institutsional dizayn ishlab chiqilgan, ushbu dizayn doirasida jarayonlar subyektlarining rollari, xizmatlar zanjiri va o'zaro muvofiqlashtirish mexanizmi aniqlanganligi bo'yicha taklifidan O'zbekiston Mahallalar uyushmasi ekotizimi (mahalla, "Nuroni", NNT va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar)da rollar, xizmatlar zanjiri va muvofiqlashtirish mexanizmini yo'lga qo'yishda foydalanildi (O'zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Nuroni" jamg'armasining 2025-yil 19-sentabrdagi 03/497-son ma'lumotnomasi). Natijada mahallalarda "Bir nuroni o'n yoshga mas'ul" tamoyili va "Nuroni har bir oilaga mas'ul" loyihasi amaliy tarzda joriy etildi, "Keksalar maslahati" guruhi a'zolari muammoli oilalarga

biriktirildi, rag'batlantirish tartibi belgilandi. "Keksalar maslahati" guruhlari, tashkilotlardagi "Faxriylar Kengashi" faoliyatini muvofiqlashtirish vazifalari normativ-huquqiy tartibda belgilab qo'yildi, bu xizmatlar zanjirini (masala aniqlash → biriktirish → xizmat ko'rsatish → monitoring) institutsionallashtirdi, hududiy ishlarda nuroniylarni moddiy-ma'naviy qo'llab-quvvatlash, ustozlik va biriktirish ishlari bo'yicha vazifalar izchillashtirildi.

keksalarning ijtimoiy faolligi va raqamli tengsizlikka ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlarni shahar-qishloq, gender hamda ta'lim kesimida tahlil qilish va indikatorlar tizimini sotsiologik jihatdan asoslantirishga doir takliflardan O'zbekiston Mahallalar uyushmasining monitoring-tahlil amaliyotida hududlar kesimida indeksatsiya jadvallari - "indeks xaritalari"ni tuzish, shahar-qishloq, gender va ta'lim darajalari bo'yicha tafovut profilini joriy etishda foydalanildi. (O'zbekiston mahallalari uyushmasining 2025-yil 19-sentabridagi 04-15/379-son ma'lumotnomasi). Natijada 2023-2025-yillar manzilli chora-tadbirlar rejasi indikatorlarga bog'landi, resurslar yuqori tafovutli tuman-mahallalarga qayta taqsimlandi, raqamli tengsizlikka qarshi "raqamli inklyuziya" mikroloyihalar (kompyuter savodxonligi, davlat xizmatlaridan onlayn foydalanish bo'yicha treninglar) ishga tushirilib, hisobot tartibiga natijadorlik (KPI) ko'rsatkichlari kiritildi.

amaldagi strategik hujjatlar (keksa avlodni qo'llab-quvvatlashga oid farmon va qarorlar) qiyosiy tahlil qilingan, faoliyat ko'rsatkichlarini natija va ta'sir ko'rsatkichlari bilan to'ldirish, shu jumladan raqamli inklyuziya va avlodlararo birdamlik indikatorlarini joriy etish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflaridan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-martdagi PQ-92-son qarorining 4-bandida joriy etilgan "Bir nuroniy - o'n yoshga mas'ul" tamoyili hamda 3-ilova, II-bo'lim, 18-bandda belgilangan tartiblar (faol nuroniylarni ta'lim muassasalariga biriktirish, "mahallabay" ro'yxatlarni shakllantirish va jamoatchilik nazoratini o'rnatish)ni amalga tatbiq etishda foydalanildi (O'zbekiston faxriylarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Nuroniy" jamg'armasining 2025-yil 19-sentabrdagi 03/497-son ma'lumotnomasi). Natijada faol nuroniylarni ta'lim muassasalariga biriktirish, "mahallabay" ro'yxat va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish kabi vazifalar amaliyotga kiritildi.

keksalar mentorligi, qayta tayyorlash/moslashtirilgan mehnat, raqamli savodxonlik kurslari kabi pilot intervensiyalar uchun amaliy model ishlab chiqilgan, ularni joriy etishning maqsadli (ma'lumot oqimi va hisobdorlik tartibi ko'rsatilgan monitoring-baholash sxemasi) xaritasi ishlab chiqilganligidan mahallada muvofiqlashtirilgan boshqaruv orqali yordamni segmentlash va nazorat qilish uchun tezkor yo'naltirish protokollari va amaliy xizmatlar zanjiri (sanatoriy, dori-darmon, protez-ortopediya, jarrohlik xarajatlari va h.k.)ni tashkil etishda foydalanildi (O'zbekiston mahallalari uyushmasining 2025-yil 19-sentabridagi 04-15/379-son ma'lumotnomasi). Natijada manzilli xizmatlarni taqsimlash va axborot oqimini yo'lga qo'yish orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga ko'rsatiladigan yordam sifati va tezligi oshdi, mazkur takliflar esa mahalla darajasida tadbirkorlikni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirish rejalarini metodologik jihatdan boyitdi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining natijalari ma'ruza sifatida 3 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida ilmiy jamoatchilikka taqdim etilib, muhokamalardan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi natijalari bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, 11 ta ilmiy maqola (shundan 1 tasi xorijiy nashrda) hamda 8 ta ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamida maqolalar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob (13 ta paragraf), xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan tashkil topgan bo'lib, ishning umumiy hajmi 258 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining bajarilgan oliy ta'lim tashkiloti ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchlilik, olingan natijalarning joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi, dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "Keksalar ijtimoiy faolligi tahlilining nazariy-metodologik asoslari" deb nomlangan birinchi bobi tadqiqotning nazariy-metodologik jihatdan o'rganishga bag'ishlanib, unda sotsiologiya va gerontologiyadagi turli nazariya va yondashuvlar asosida keksalik, qarilik, keksalar, keksalarning ijtimoiy faolligi tushunchalarining mazmun-mohiyati nazariy tahlil qilingan hamda keksalarning ijtimoiy-demografik xususiyatlari ochib berilgan.

Ilmiy adabiyotda "keksalik", "qarilik", "mo'ysafid", "nuroniy" atamalari bo'yicha yagona ilmiy ta'rif mavjud emas. Bu borada gerontologik adabiyotlarda turli talqinlar uchraydi va ularni tipologik turkumlashning o'zi alohida ilmiy vazifadir. Aslida "qarilik" - keksalik holatiga ishora qiluvchi shartli tushuncha bo'lib, uning chegarasi kuzatuvchining idroki va ijtimoiy-madaniy kontekstga bog'liq. Insonni "keksa" yoki "qari" deb atash uchun universal biologik yosh chegarasi yo'q, amaliyotda 60 va undan katta yosh toifasi texnik me'yor sifatida qo'llansa-da, u umumiy, shartli indikatoridir.

Keksayish va qarilik bir xil ma'noga ega emas. Keksayish inson hayoti davomida uzluksiz kechadigan jarayon; qarilik esa shu jarayonning natijasi sifatida yuzaga keladigan yakuniy davrdir. Qarilikning asosiy belgilari – fiziologik tizimlar faoliyatidagi qaytarilmas o'zgarishlar va atrof-muhitga nisbatan moslashuv rezervlarining pasayishi bilan namoyon bo'ladi. Ilmiy adabiyotda qarilik fiziologik susayish sifatida, kalendar yoshning ortishi yoki madaniy-ijtimoiy rollar doirasi torayib borishi bilan bog'liq jarayon sifatida turlicha talqin etiladi. Shu bois dissertatsiyada "keksayish" - biopsixologik va ijtimoiy o'zgarishlar dinamikasi, "qarilik" esa ushbu dinamikaning davriy bosqichi sifatida farqlanadi.

Islom dinining muqaddas manbasi — Qur'oni Karimda ham keksalik inson hayotining ko'rki, sinov va qadrlanishi kerak bo'lgan davri sifatida talqin qilinadi va Rum surasining 54-oyatida inson umri bolalik, yoshlik, kuch-quvvat va keksalik bosqichlari sifatida bayon etiladi: "Alloh sizlarni ojiz holda yaratdi. So'ng

ojizlikdan keyin quvvat berdi. So‘ng quvvatdan keyin ojizlik va keksalik keltirdi. U xohlaganini yaratadi. Va U zot biluvchi va qodirdir”¹⁷ (Qur‘on, Rum 30:54).

“Keksalar” - bu ijtimoiy hayotda o‘z rollari va aloqalari orqali ahamiyatli o‘rin tutadigan, faol mehnat faoliyatini to‘xtatgan, ammo jamiyatdagi qadriyat va tajribalarni yosh avlodga uzatishda muhim vazifani bajaradigan katta yoshdagi shaxslar guruhi. Ular ijtimoiy faollik orqali o‘z salomatligi va psixologik holatini mustahkamlab, jamiyatdagi o‘zgarishlarga moslashishga intiladilar¹⁸.

“Qarilik” - bu inson hayotining oxirgi bosqichi bo‘lib, unda jismoniy va psixologik o‘zgarishlar yuz beradi, ijtimoiy hayotdagi faoliyatlar va rollar qayta shakllanadi, shu bilan birga insonning jamiyatdagi mavqei o‘zgarishi kuzatiladi¹⁹.

Shu bilan birga, keksa kishi bilan qari kishi tushunchalari ko‘pincha yaqin ma‘noda ishlatilsa-da, ularning o‘rtasida muayyan farqlar mavjud. Bu farqli jihatlar bu ikki tushunchani ajratib beradi:

1-jadval.

Keksa va qari kishilarga xos xususiyatlar²⁰

Yo‘nalish	Keksa kishi (60–74 yosh)	Qari kishi (75+ yosh)
Yosh	60–74 yosh, keksalik	75–89 yosh - qarilik, 90+ uzoq umr ko‘ruvchilar
Jismoniy holat	Salomat, faol, harakatchan	Kuchsiz, salomatlik pasaygan
Ijtimoiy faollik	Faol, mehnat, jamoat ishlari	Faollik kam, uy, oila, ko‘mak
Psixologik holat	Mustaqil, yangi ko‘nikmalarga ochiq	Xotira susaygan, o‘tmish xotirasi, qo‘llab-quvvatlashga muhtoj
Munosabatlar	Rollar, tajriba almashish, yoshlar bilan aloqa	Ijtimoiy munosabatlar doirasi toraygan, yaqinlarga muhtoj

Keksa va qari toifalarning eng muhim farqi ularning ijtimoiy faollik darajasida ko‘rinadi. Ijtimoiy faollik subyektning dolzarb ehtiyoj va manfaatlariga tayangan holda maqsad va ideallariga muvofiq ravishda ijtimoiy tashabbuslarni ilgari surishi, yechim kutayotgan vazifalarni hal etishda faol ishtirok etishi va mavjud shart-sharoitlarni yaxshilashga qaratilgan ongli amaliyotidir. Bu jarayon subyektning ijtimoiy imkoniyatlari, madaniy kapitali, bilim, malaka va ko‘nikmalarini namoyon qiladi, shuningdek u o‘z faoliyati orqali atrofdagilarni qamrab olish va o‘zini/boshqalarni o‘zgartira olish qobiliyatini ro‘yobga chiqaradi. Shu ma‘noda “keksa” va “qari” atamalari funksional (faollik) mezoni asosida farqlanadi.

Dissertant ijtimoiy faollik borasidagi ilmiy tahlillardan kelib chiqqan holda “keksalarning ijtimoiy faolligi” tushunchasiga mualliflik ta‘rifini ishlab chiqqan.

Keksalarning ijtimoiy faolligi - bu keksa shaxsning ma‘naviy qadriyatlariga, intellektual ehtiyojlariga va hayotiy tajribasiga tayanilgan holda, jamiyat uchun

¹⁷ Куръони Карим маънолар таржимаси / таржимон: Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. – Тошкент: Hilol Nashr, 2019. – 640 б.

¹⁸ Allahyarova, T. The decline of liberal political philosophy as one of the reasons of crisis of migration and multiculturalism in western society. Philosophy and Life, Tashkent, 2018, №1/2(1), P.13.

¹⁹ Havighurst, R. J. Successful aging // The Gerontologist. — 1961. — 1(1). — P. 8–13.; Atchley, R. C. A Continuity Theory of Normal Aging // The Gerontologist. — 1989. — 29(2). — P. 183–190.

²⁰ Eslatma: keltirilgan tasnif shartli xarakterga ega bo‘lib, qat‘iy yosh chegaralarini emas, balki o‘rtacha tendensiyalarni aks ettiradi.

ahamiyatli maqsadlarga erishish yo'lida tashabbus ko'rsatish, mustaqil qaror qabul qilish va javobgarlik bilan harakat qilish qobiliyati hamda amaliyotidir. U o'z ichiga I) tashabbuskorlik va rejalashtirish, II) jamoat/oilaviy vazifalarda ishtirok, III) o'zini va atrofni ijobiy o'zgartirishga qaratilgan izchil harakatlar majmuasini oladi.


Sotsiologiya va gerontologiya fanlaridagi turli nazariy yondashuvlar, shu jumladan, faollik, uzluksizlik, ijtimoiy inqiroz va ijtimoiy konstruktivizm nazariyalari, harakat nazariyasi va avlodlararo vorislik konsepsiyasi qarish jarayonining turli jihatlarini ochib berishga qaratilgan. Bu yondashuvlar orqali keksa insonlarning jamiyatdagi o'rni va rollari turli ko'rinishlarda izohlanadi. Har bir nazariyaning yutuqlari va cheklovlari bor bo'lsa-da, ularning barchasi keksalikni yaxlit tushunishga yordam beradi va gerontologiya sohasidagi fanlararo tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Dissertant tomonidan sotsiologiya va gerontologiyadagi nazariya hamda konseptual yondashuvlar asosida sotsiogerontologik tahlilning umumlashtirilgan tasnifi taklif etilgan.

2-jadval.

Sotsiologiya va gerontologiya maktablari vakillarining qarish va keksayish borasidagi qarashlari asosidagi tasnif

№	Ilmiy maktablar	Ilmiy maktab namoyandalari	Ilgari surilgan nazariyalar
1	Faoliyat nazariyasi	R. Havigerst	Muvaffaqiyatli qarish = faol ijtimoiy rollar va ishtirok; ijtimoiy bog'lanish qoniqishni oshiradi
2	Uzluksizlik	R. Atchli; G. Maddoks	Identiklik va hayot uslubining izchilligi barqarorlik va farovonlikni ta'minlaydi.
3	Ajralish	E. Kamming; U. Xenri	Qarish - shaxs va jamiyat o'rtasida tabiiy uzoqlashuv; rollar bosqichma-bosqich kamayadi
4	Ijtimoiy almashinuv	J. Doud; P. Blau; G. Xomans	Resurslar muvozanati asosida aloqalar; resurslar kamayganda ishtirok pasayishi mumkin
5	Hayot bosqichi	G. Elder; M. Kohli; K. Mayer; B. Noygarten	Qarish - tarixiy davr, kohort va individual traektoriyalarga bog'liq dinamik jarayon.
6	Yosh stratifikatsiyasi	M. Riley; A. Foner	Institutsional rollar yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanadi; avlodlararo muvozanat muhim
7	Modernizatsiya nazariyasi	D. Kougill; L. Xolmes	Sanoatlashtirish va ta'lim o'sishi sharoitida keksalar maqomi o'zgarishi mumkin
8	Ijtimoiy konstruktivizm / eydjizm tanqidi	T. Diamond; J.F. Gubrium; S.R. Kaufman	Qarish haqidagi ma'nolar ijtimoiy quriladi; stereotiplar ishtirokka ta'sir qiladi
9	Tanqidiy gerontologiya / Siyosiy iqtisod	H.R. Mudi; V. Dannefer va b.	Qarishga strukturaviy tengsizliklar, sinf/gender kesimidagi yondashuv
10	Sharq merosi – normativ-axloqiy	Ibn Sino; Alisher Navoiy; Al-Farobiy; Ibn Xaldun	Keksalar - hikmat va ijtimoiy barqarorlik tayanchi; ustozlik va avlodlararo vorislik

1-bobning 3-paragrafida mamlakatda 60 yosh va undan katta aholining tarkibi, hududiy joylashuvi, jins-yosh tuzilishi, uy-xo‘jalik maqomi (yolg‘iz/oilaviy), ta’lim darajasi, salomatlik holati hamda ijtimoiy himoya qamrovi tizimli tahlil qilindi.



1-rasm. O‘zbekistonda 2013–2024-yillarda 60 yosh va undan katta aholi sonining o‘shish dinamikasi²¹

2024-yilning boshiga kelib O‘zbekistonda 60 yosh va undan katta aholi soni 3 467 754 nafar bo‘lgan. 2013-yilning boshida esa ularning soni 1 889 238 nafarni tashkil etgan bo‘lib, bu toifa ulushi o‘tgan 11 yil davomida 83,6 foizga o‘sgan. Gender kesimida esa bu ko‘rsatkich erkaklar va ayollarda ham deyarli bir xil o‘shishni namoyon etdi. Keksalar sonining o‘rtacha yillik o‘shishi esa 143 501 nafardan iborat bo‘ldi²² (1-rasm). So‘nggi 6 yil ichida, xususan, 2018 va 2022-yillarda ayniqsa yuqori o‘shish qayd etilgan. Umumiy o‘shish sur‘ati ham yuqorida qayd etilgan ma’lumotlarga qaraganda, barqaror o‘shishda ekanligi ko‘rinadi, bu esa aholining tuzilmasida o‘zgarishlar va keksalar sonining muttasil ortib borishini ko‘rsatadi. Ayollar soni ham shunga o‘xshash darajada o‘shib borgan, biroq ayollar soni yillar davomida erkaklar soniga nisbatan yuqori bo‘lib kelgan. Bu holat ayollarning uzoqroq yoshgacha yashash imkoniyati ko‘proq ekanligini ko‘rsatadi. 2024-yilga kelib keksa yoshdagi aholi soni sezilarli darajada ko‘paygan. Bu tendensiya jamiyatning qarish jarayonida ekanligini va keyingi yillarda keksa aholi uchun yanada ko‘proq ijtimoiy dasturlar va xizmatlarga ehtiyoj sezilishini ko‘rsatadi.

Urbanizatsiya va migratsiya sharoitida shahar–qishloq kesimida xizmatlarga kirish imkoniyatlari farqi saqlanayotgani, shuningdek gender bo‘yicha umr davomiyligi va nogironlik profilidagi tafovutlar keksa avlodning ishtirok yo‘nalishlarini belgilayotgani ko‘rsatiladi. Uy xo‘jaliklari tarkibida “keksa–yosh” o‘rtasida resurs almashinuvi (parvarish/maslahat ↔ logistika/raqamli yordam) kengayayotgani qayd etiladi, biroq infratuzilma, transport va tibbiy xizmatlardan

²¹ O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida hisob-kitob qilindi.

²² O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi. Demografik ko‘rsatkichlar bo‘yicha hisobot, 2023.

foydalanishda hududlararo asimmetriyalar mavjud. Paragraf keksalarning ijtimoiy faolligi uchun demografik bazisni, shuningdek uni rag‘batlantiradigan va cheklovchi omillarni aniqlab beradi.

“Keksalarning ijtimoiy faolligi: mavjud holat tahlili” nomlangan ikkinchi bobning “Keksalarning ijtimoiy faolligiga ta’sir etuvchi asosiy omillar” nomli 1-paragrafida tadqiqotchi keksa avlod ishtirokini belgilaydigan omillarni 4 ta katta turkumga: *shaxsiy* resurslar: sog‘liq, funksional mustaqillik, ta’lim, daromad barqarorligi, psixologik barqarorlik; ijtimoiy tarmoq va muhit: oilaviy qo‘llab-quvvatlash, qo‘shnichilik/mahalla tarmoqlari, ishonch va me’yorlar (ijtimoiy kapital); *infratuzilma* va xizmatlar: transport, madaniy-masofaviy xizmatlar, raqamli kirish imkoniyati, tibbiy-ijtimoiy servislari; institutsional-siyosiy omillar: huquqiy kafolatlar, dasturlar va moliyalashning indikatorga bog‘lanishi, “keksalarga mos” standartlarga ajratadi va ularning ta’sir doirasini ochib beradi. Tahlilda faollikni oshiradigan drayverlar (uzluksiz ta’lim, moslashtirilgan mehnat, raqamli savodxonlik, intergeneratsion loyihalar) va cheklovlar (salomatlik cheklanishlari, axborot asimmetriyasi, hududiy xizmatlar tafovuti) ajratiladi. Faol keksayish indeksi mantig‘iga uyg‘un indikatorlar xaritasi va monitoring uchun kompozit/subindeks yechimlaridan foydalanish zarurligi asoslanadi.

Shu bobning “Keksalarning ijtimoiy faolligi borasidagi xorijiy tajriba” deb nomlangan 2-paragrafida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar amaliyotidan muhim va ibratli tajribalar tahlil qilinadi. Bularga volontyorlik va fuqarolik ishtirokini rag‘batlantiruvchi dasturlar, “keksalarga mos” (age-friendly) jamoalar, kattalar uchun uzluksiz ta’lim (Lifelong Learning), raqamli inklyuziya, moslashtirilgan mehnat va intergeneratsion mentorlik modellari. Yaponiyaning Keksalar mehnat resurslari markazlari (Silver Human Resources Centers), Germaniya Keksalar tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi (BAGSO), AQShdagi Amerika pensiyadagi kishilar uyushmasi (AARP tarmoqlari), Yevropa Ittifoqidagi Faol keksayish indeksi (AAI) kabi tajribalar qiyosan tahlil qilinib, ularning ijtimoiy kapitalni kuchaytirish, yolg‘izlikni kamaytirish, salomatlik va hayot sifati ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’siri qayd etiladi. O‘zbekiston sharoitiga tatbiq etish uchun “mahalla – Nuroiniy – NNT - xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot (servis provayder)” hududiy hamkorlik, indikatorli monitoring, Call markazlari va raqamli navbat/yo‘naltirish xizmatlari kabi moslashuv yechimlari taklif etiladi.

Ikkinchi bobning “Faol keksayish indeksi keksalar ijtimoiy faolligining ko‘rsatkichi sifatida” nomdagi 3-paragrafda keksalarning jamiyatdagi o‘rni va ishtirokini tizimli o‘lchash vositasi sifatida Faol keksayish indeksining mazmun-mohiyati ochib berildi. Faol keksayish indeksi 4 ta yo‘nalish va 22 ta indikator asosida shakllantirildi. Indikatorlar turli o‘lchov birliklarida ifodalangani sababli ular 0–100 ballik yagona shkalaga keltirildi. Har bir domen tarkibidagi ko‘rsatkichlar belgilangan vaznlar asosida umumlashtirilib, domen subindekslari shakllantirildi. Domen subindekslarini yagona kompozit indeksga birlashtirish tartibi va uni hisoblash mexanizmi belgilandi. Bunda bandlik, jamiyat hayotidagi ishtirok, mustaqil, sog‘lom va xavfsiz hayot hamda faol keksayish uchun mavjud imkoniyatlar alohida baholanadi. Natijalar gender, hudud va shahar–qishloq kesimlarida qiyosiy tahlil qilinadi (2-rasm).

Faol keksayish indeksi			
Bandlik	Jamiyat hayotida ishtirok etish	Mustaqil hayot	Qulay muhit va imkoniyatlar
55-59 yoshdagi aholi orasidagi bandlik darajasi	Volontyor (ko'ngillilar) faoliyati	Jismoniy faollik	55 yoshda o'rtacha umr ko'rish davomiyligi
60-64 yoshdagi aholi orasidagi bandlik darajasi	Bolalar va nevaralarga g'amxo'rlik qilish	Tibbiy xizmatlardan foydalanish	55 yoshda sog'lom umr yillari ulushi
65-69 yoshdagi aholi orasidagi bandlik darajasi	Keksalarga g'amxo'rlik qilish	Mustaqil (alohida) yashash	Psixologik barqarorlik
70-74 yoshdagi aholi orasidagi bandlik darajasi	Jamiyatning siyosiy hayotida ishtirok etish	O'rtacha daromad	Internet va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish
		Qashshoqlik xavfi yo'qligi	Ijtimoiy aloqalar
		Jiddiy moddiy ta'minlanmaslik (yetishmovchilik)	Keksalarning ta'lim (ma'lumotlilik) darajasi
		Jismoniy xavfsizlik	
		Uzluksiz ta'lim	

2-rasm. Faol keksayish indeksi va uning indikatorlari

Konseptual manba sifatida JSSTning 2002-yilgi “Active Ageing: A Policy Framework” hujjati va Madrid xalqaro harakat rejasi asos qilingan. Indeksning o'zi BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi (UNECE) qo'shma loyihasi doirasida ishlab chiqilgan bo'lib, keksa avlodning imkoniyatlari va ishtirok darajasini ko'p o'lchamli tartibda baholashga xizmat qiladi.


Indeksni milliy sharoitga moslashtirishda xalqaro metodologiyadagi 22 indikatorning 7 tasi muqobil (proksi) ko'rsatkichlar asosida hisoblandi. “Nisbiy median daromad, 65+” indikator bo'yicha ma'lumot mavjud bo'lmagani sababli O'zbekiston bo'yicha amaliy hisob-kitob 21 indikator asosida bajarildi. Turli o'lchov birliklaridagi ko'rsatkichlar yagona o'lchovga keltirilib, vaznlashtirish orqali domen subindekslari shakllantirildi.

Tadqiqotning empirik bazasini 2023-yil avgust-noyabr oylarida Andijon, Buxoro, Qashqadaryo, Xorazm, Samarqand va Sirdaryo viloyatlari hamda Toshkent shahrida o'tkazilgan miqdoriy, kesimli sotsiologik so'rov natijalari tashkil etdi. So'rovda 55 yosh va undan katta 3017 nafar respondent qatnashdi; ma'lumotlar planshet yordamidagi yuzma-yuz intervyu orqali yig'ilib, SPSS dasturida qayta ishlandi. Natijalar yosh, gender, ta'lim va shahar–qishloq kesimlarida tahlil qilindi.

Dissertatsiyaning “Yangi O'zbekistonda keksalarning ijtimoiy faolligiga o'zgarishlarning ta'siri” deb nomlangan uchinchi bobining “Yangi O'zbekistonda keksalarga oid davlat siyosatining sotsiologik tahlili” nomli 1-paragrafida keksalarni qo'llab-quvvatlashga doir normativ-huquqiy hujjatlar va ularni amalga oshirish mexanizmlari qiyosiy tahlil qilindi. Tahlil davlat siyosatida keksalarni faqat ijtimoiy himoya obyekti sifatida qo'llab-quvvatlashdan ularni jamiyat hayotining faol subyekti sifatida jalb etishga o'tish tendensiyasini ko'rsatdi. Shu bilan birga, dasturlarda tadbirlar soni va ajratilgan mablag' kabi faoliyat ko'rsatkichlari ustunligi, bandlik, raqamli inklyuziya, volontyorlik va avlodlararo birdamlik bo'yicha natija hamda ta'sir indikatorlarini kuchaytirish zarurligi asoslandi.

Uchinchi bobning “O'zgarishlar sharoitida keksalarning oilaviy munosabatlar va ijtimoiy aloqalardagi o'rni” nomli 2-paragrafida urbanizatsiya, migratsiya,

raqamlashtirish va mehnat bozoridagi strukturaviy o'zgarishlar sharoitida keksa avlodning oilaviy rollari (nabira parvarishi, maslahatchilik, norasmiy parvarish), ijtimoiy aloqalari (qo'shnichilik, mahalla ichidagi tayanch tarmoqlar) va jamoat hayotidagi ishtiroki (ixtiyoriy faoliyat, madaniy-ma'rifiy tadbirlar) to'g'risidagi topilmalar umumlashtiriladi. Tahlilga ko'ra, oilalarda keksa va yosh avlod o'rtasida vazifalarning o'zaro to'ldiruvchi muvozanati saqlanmoqda: keksalar tajriba va tarbiyani, yoshlar esa raqamli hamda logistik ko'nikmalarni taqdim etmoqda. Dissertant fikricha, raqamli xizmatlar kengayishi ortidan keksalarning aloqa kanallari diversifikatsiyalanmoqda, ammo raqamli inklyuziya darajasi hanz bir xil emas (3-rasm).



3-rasm. Keksalarning Internetdan foydalanish darajasi (foiz hisobida)

Shu bois, keksa avlodni raqamli savodxonlik va onlayn xizmatlardan foydalanish bo'yicha past bosqichdan yuqori bosqichga izchil ko'chirish zarur. Jamoatda ishtirok - mahalla, "Buvijonlar maktabi", "Keksalar maslahati guruhi", "Faxriylar kengashi" kabi platformalar orqali - ijtimoiy kapitalni kuchaytiradi va yolg'izlik hissini kamaytiradi. Asosiy to'siqlar sifatida sog'liq holati, infratuzilmaga kirish, transport logistikasi hamda axborot asimmetriyasi qayd etiladi.

3-bobning "Bandlik keksalar ijtimoiy faolligining muhim ko'rsatkichi sifatida" deb nomlangan 3-paragrafida keksalarning iqtisodiy ishtiroki (moslashtirilgan mehnat, qisman ish va masofaviy ish, kichik tadbirkorlik) ijtimoiy faollikning markaziy drayveri sifatida ko'rsatiladi. Tadqiqotchi tomonidan yechim sifatida keksa yoshdagilar uchun moslashtirilgan ish o'rinlari (vaqt jadvali, vazifa hajmi); qayta tayyorlash va uzluksiz o'qish kurslari; jamoat ishlari va ijtimoiy kontrakt orqali ixtiyoriy mehnat va jamoat ishlari uyg'unligi; "keksalarga mos ish joyi" standartlari taklif etiladi.

So'rov natijalariga ko'ra²³, juda kam sonli keksalar iqtisodiy faoliyat bilan band. Tahlillarga ko'ra, respondentlarning 11,0 foizi amalda haq to'lanadigan mehnat faoliyati bilan shug'ullanadi, keksa ayollarda esa bu foiz birmuncha pastroq. Umuman olganda, O'zbekistonda aholining keksa yoshdagi qatlamida iqtisodiy

²³ Keksalarning holatini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan mazkur tadqiqot 2023-yilning avgust-noyabr oylarida respublikaning 7 ta hududiy birligi: Andijon, Buxoro, Qashqadaryo, Xorazm, Samarqand, Sirdaryo viloyatlari va Toshkent shahrida istiqomat qiladigan 3 017 nafar 55 yosh va undan katta bo'lgan aholi orasida o'tkazildi.

imkoniyatlardan xabardorligi past darajada bo‘lib, ularning iqtisodiyot va jamiyat hayotidagi hissasini oshirish, mehnat bozoridagi ishtirokini kuchaytirish zarurati yuzaga kelganda keksalarning iqtisodiy faolligini oshirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini amalga oshirish juda muhimdir.

3-jadval.

**Keksalarning bandlik indikatori bo‘yicha olingan ko‘rsatkichlar
(ball/foiz hisobida)**

	Jami	Erkak	Ayol	Shahar	Qishloq
Bandlik indikatori (ball)	11, 0	16,3	6,5	9,1	13,2
Bandlik darajasi (55-59 yosh) (%)	19,2	27,3	12,1	17,8	20,9
Bandlik darajasi (60-64 yosh) (%)	11,1	16,1	6,8	10,5	11,8
Bandlik darajasi (65-69 yosh) (%)	8,0	10,7	5,9	4,4	12,4
Bandlik darajasi (70-74 yosh) (%)	5,5	11,1	1,0	3,8	7,5

Keksalarning bandligi nafaqat mehnat bozoridagi imkoniyatlar, balki ularning shaxsiy afzalliklari, qobiliyatlari va imkoniyatlarining ham aksidir. Ko‘pgina mamlakatlarda keksalarning mehnat bozorida ishtirok etishi ongli, shaxsiy va erkin tanlov natijasi emas, balki zaruratdir. Bu esa, pensiyalar miqdori past bo‘lgan sharoitda, keksalar yoki uzoq muddat davomida mehnat faoliyatini davom ettirishga, yoki daromadning muqobil manbalarini izlashga majbur bo‘ladigani bilan bog‘liq.

O‘zbekistonda keksalarning iqtisodiy faolligi past darajada bo‘lib, ular asosan an‘anaviy mehnat turlari va uy-ro‘zg‘or ishlari bilan cheklanmoqda. Yosh oshishi bilan mehnat bozorida ishtirok darajasi pasayib boradi, gender tafovutlari esa ayniqsa ayollar uchun iqtisodiy imkoniyatlarni cheklab qo‘ymoqda. Ta‘lim darajasi yuqori bo‘lgan keksalar mehnat bozorida uzoqroq faol qolishi mumkinligi kasbiy qayta tayyorlash va hayot davomida ta‘lim olish imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda keksalarga oid davlat siyosatining huquqiy asosi ko‘p sathli tizim bo‘lib, u konstitutsiyaviy kafolatlardan tortib sohaviy va pilot hujjatlarigacha qamrab oladi. Bu tizim institutsional darajada (Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari) va amaliy darajada (ijtimoiy xizmatlar tarmog‘i, “Inson” markazlari, “Nuroni” jamg‘armasi) o‘zaro bog‘liq faoliyatni talab qiladi. Ilmiy nuqtai nazardan, normativ hujjatlarning darajalar va davrlar bo‘yicha ierarxiyasi demografik keksalikning yangi bosqichlariga mutanosib ravishda evolyutsiya qilgani kuzatilmoqda.

Keksalarga oid davlat siyosatining mazmun-mohiyati, uning ijtimoiy hayotga ta’siri va amalga oshirilayotgan mexanizmlari sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qilindi. Xususan, so‘nggi yillarda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-

yil 15-martdagi “Nuroniylarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning turmush darajasini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–167-son hamda 2023-yil 11-martdagi “Keksa avlod vakillarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda ularning ijtimoiy faolligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-92-son qarori kabi me‘yoriy-huquqiy hujjatlar asosida faol qarilik, avlodlararo birdamlik, ijtimoiy sheriklik, madaniy hamjihatlik kabi ijtimoiy jarayonlar shakllantirilayotgani tadqiq etildi. Bunda keksa avlod vakillarining ijtimoiy kapitalini tiklash va ularni ijtimoiy subyekt sifatida qayta namoyon etishga qaratilgan choralar tahliliy o‘rganildi.

Dissertatsiya ishining “Yangi O‘zbekistonda keksalarning ijtimoiy faolligini yanada takomillashtirish yo‘llari” 4-bobi “Keksalar hayotida mentorlik tizimi va ularni bevosita va virtual faollashtirish imkoniyatlari” nomlangan 1-paragrafida keksalarning iqtisodiy va madaniy faolligini oshirish strategiyalari kompleks tarzda asoslanadi. Iqtisodiy yo‘nalishda faollikni kengaytirishning uch yo‘li ta‘riflanadi:

Moslashtirilgan mehnat - vaqt jadvali, vazifa hajmi va ish o‘rni ergonomikasini keksa ishlovchining resurslariga moslashtirish;

Muvofiq shakllar - qisman bandlik, masofaviy faoliyat, mavsumiy/loyihaviy formatlar va kichik tadbirkorlik (kooperativlar);

Qayta tayyorlash va uzluksiz o‘qish - raqamli va kasbiy kompetensiyalarni qo‘shma platformalar orqali yangilash.

Mazkur choralar madaniy-ijtimoiy ishtirok bilan o‘zaro bog‘lanadi: muzey, teatr, kutubxona va mahalliy klublar bilan sheriklik, “keksa–yosh” qo‘shma to‘garaklari, ochiq ijtimoiy-madaniy maydonlar orqali jamoaviy ishtirokni rag‘batlantirish taklif etiladi. Samaradorlikni baholash uchun ishlab chiquvchi indikatorlar belgilanadi. Bularga keksalar bandlik ulushi, qayta tayyorlash kurslari qamrovi, madaniy tadbirlarda ishtirok chastotasi va subyektiv hayot sifati ko‘rsatkichlari kiradi. Kutiladigan natija sifatida daromad barqarorligi, ijtimoiy kapital o‘sishi va yolg‘izlik hissining pasayishi qayd etiladi.

Shu bobning “Keksalar sog‘lom va xavfsiz hayotining sotsiologik tahlili” 2-paragrafida faol keksayish” tamoyillari asosida kompleks baholandi. Tuzilgan indeks 7 ko‘rsatkichga tayandi (daromad bo‘yicha rasmiy ma‘lumot yo‘qligi sababli proksi ko‘rsatkichlar qo‘llanildi) va umumiy qiymat 40,2 ballni tashkil etdi. Mazkur domen bo‘yicha integral ko‘rsatkich 40,2 ballni tashkil etdi. Bu natija mustaqil, sog‘lom va xavfsiz hayot imkoniyatlari yetarli darajada shakllanmaganini hamda ayrim ko‘rsatkichlar bo‘yicha sezilarli cheklov va xatarlar saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi. Asosiy o‘lchovlar: jismoniy faollik 48,7 foiz, tibbiy-stomatologik xizmatdan foydalanish - 47,6% (qishloqda 44,6 foiz), moddiy deprivatsiyadan xoli 59,5 foiz, jismoniy xavfsizlik hissi 95 foiz, umrbod ta‘lim 5,3 foizni tashkil etdi. Gender va hududiy kesimda ayollar hamda qishloq aholisi nisbatan zaif guruh sifatida namoyon bo‘ldi; ta‘lim darajasi yuqorilagan sari salomatlikning subyektiv bahosi va faollik oshishi kuzatildi.

**Mustaqil, sog‘lom va xavfsiz hayot uchun integral ko‘rsatkichlar
(ball/foiz hisobida)**

Ko‘rsatkich	Jami	Erkak	Ayol	Shahar	Qishloq
Mustaqil, sog‘lom va xavfsiz hayot (ball/baho)	40,2	41,7	39,1	41,2	39,1
Jismoniy faollik, 55 yosh va undan katta (%)	48,7	54,8	43,8	52,4	44,5
Tibbiy va stomatologik xizmatdan foydalanish, 55 yosh va undan katta (%)	47,6	48,0	47,4	50,2	44,6
Mustaqil yashash, 75 yosh va undan katta (%)	7,4	7,9	7,1	7,8	7,0
Nisbiy median daromad, 65 yoshdan katta (%)	–	–	–	–	–
Qashshoqlik xavfi yo‘q, 65 yoshdan katta (%)	83,4	85,4	81,1	85,1	82,1
Moddiy deprivatsiya yo‘q, 65 yoshdan katta (%)	59,5	64,9	55,5	58,5	60,7
Jismoniy xavfsizlik, 55 yoshdan katta (%)	95,0	95,4	94,6	95,5	94,3
Umrbod ta’lim olish, 55–74 yosh (%)	5,3	4,1	6,3	6,0	4,5


Keksalarning sog‘liq (obyektiv/subyektiv) holati, iqtisodiy barqarorlik va xizmatlarga yetishuvchanlik mustaqil hayotning asosiy determinantlaridir. Amalga oshirish uchun “mahalla – Nuroniy – NNT - xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot (servis-provayder)” hududiy hamkorligi, profilaktika va rehabilitatsiyani kuchaytirish, uy-joyni moslashtirish, raqamli navbat/yo‘naltirish va qo‘ng‘iroq markazlari, shuningdek indikatorli monitoring panellari tavsiya etildi; ayrim maqsadli guruhlar (ayollar, qishloq, ta’lim darajasi past toifalar) uchun maxsus dasturlar zarur.

4-bobning “Avlodlararo aloqalarni mustahkamlash ijtimoiy faollikni oshirish omili sifatida” nomli 3-paragrafida avlodlararo aloqalarning keksalar ijtimoiy faolligiga ta’siri nazariy-konseptual va empirik-operatsional asosda asoslanadi. Avlodlararo o‘zaro ta’sirlar instrumental ko‘mak (parvarish, maishiy yordam), afektiv birikma (emotsional qo‘llab-quvvatlash) va normativ majburiyat (oilaviy-axloqiy majburiyatlar) kanallari orqali keksalarning faol ishtirokini kuchaytiruvchi mexanizm sifatida modellashiriladi.

Ijtimoiy aloqaning intensivligi (uchrashuv chastotasi) keksalar ijtimoiy faolligining proksi-indeksi sifatida qo‘llanildi: oyiga “ $\geq$ bir necha marta” va “ $\geq$ haftasiga bir marta” toifalari bo‘yicha jamlanma ulush $\sim 52\text{--}55$ foizni tashkil etdi; “hech qachon” javobi 7 foiz atrofida. Yoshga bog‘liq dinamikada faol muloqotning pasayishi (55–59 yoshda 44 foiz $\rightarrow$ 75+ da 24 foiz) va izolyatsiya indikatorining oshib borishi (55–59 yoshda 6 foiz $\rightarrow$ 75+ da 17 foiz) qayd etildi. Ta’lim bo‘yicha farqlanish yaqqol namoyon bo‘ldi, ya’ni boshlang‘ich ma’lumotli guruhda ijtimoiy izolyatsiyaning yuqori ulushi (24 foiz) kuzatildi. Gender va hudud kesimida ayollarda qisqa intervalli, qishloqda esa oilaviy-davriy muloqot ustun ekani ko‘rindi.

Mazkur bobning “Keksalarni faollashtirishda nodavlat notijorat tashkilotlari va ko‘ngillilar harakatining o‘rni” nomli to‘rtinchi paragrafida keksalarni faollashtirishda nodavlat notijorat tashkilotlari va ko‘ngillilar harakatining institutsional roli huquqiy baza hamda amaliy infratuzilma kontekstida asoslangan. Milliy amaliyotda “mahalla – Nuroniy – NNT – xizmat ko‘rsatuvchi tuzilmalar”


hamkorligiga tayangan “keksaga mos jamoa” institutsional modeli taklif etilgan (4-rasm).



4-rasm. Keksalarning ijtimoiy faolligini ta'minlashda tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish (koordinatsiya) tizimi

Ushbu model keksalarga oid xizmatlarni tarqoq shaklda emas, balki yagona muvofiqlashtirilgan tizim asosida tashkil etishga qaratilgan. Modelda mahalla asosiy muvofiqlashtiruvchi bo'g'in sifatida namoyon bo'lib, “Nuroniyl” tizimi, NNTlar, volontyorlik tuzilmalari, ijtimoiy xizmatlar, sog'liqni saqlash, bandlik, ta'lim va raqamli xizmatlar bilan o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritadi. Bu jarayonda har bir subyektning vazifasi, javobgarlik chegarasi, xizmat ko'rsatishdagi o'rni va natija uchun mas'uliyati aniqlashtiriladi.

Modelda xizmatlar zanjiri “muammoni aniqlash - baholash - tegishli tuzilmaga yo'naltirish - xizmat ko'rsatish - monitoring - natijani baholash” bosqichlariga tayanadi. Bu yondashuv keksalarga ko'rsatiladigan yordamni tarqoq holatda emas, balki tizimli, manzilli va hisobdorlikka asoslangan tarzda tashkil etish imkonini beradi. Shu orqali sanatoriya yo'llash, dori-darmon, protez-ortopediya vositalari, tibbiy xizmat, ijtimoiy himoya, raqamli xizmatlardan foydalanish, moslashtirilgan mehnat va qayta tayyorlash kabi yo'nalishlarda tezkor va muvofiqlashtirilgan amaliy yordam ko'rsatish ta'minlanadi.



5-rasm. Keksalarni qo'llab-quvvatlash xizmatlarini ko'rsatish zanjiri

Modelning ilmiy ahamiyati NNTlar va volontyorlik infratuzilmasini ijtimoiy kapital hamda hamkorlikda xizmat ko'rsatish yondashuvlari asosida “keksaga mos jamoa” tizimiga integratsiyalashda namoyon bo'ladi. Bu esa xizmatlar kooperatsiyasini kuchaytirish, takroriy murojaatlarni kamaytirish, keksalarning ijtimoiy ishtiroki va xizmatlardan qoniqish darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur institutsional model keksalarni faqat ijtimoiy himoya obyekti sifatida emas, balki jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shuvchi faol subyekt sifatida qarashga

asoslanadi. U keksa avlodning tajribasi, bilimlari, tarbiyaviy salohiyati va jamoatchilik faolligini mahalla hayoti, yoshlar tarbiyasi, volontyorlik, raqamli inklyuziya va ijtimoiy xizmatlar tizimi bilan bog'laydi. Natijada keksalarning ijtimoiy faolligi oshadi, avlodlararo hamjihatlik mustahkamlanadi, ijtimoiy xizmatlarning manzilliligi va samaradorligi kuchayadi hamda jamoada "faol keksayish" tamoyillarini amaliyotga joriy etish uchun barqaror institutsional muhit shakllanadi.

XULOSA

"O'zbekistonda o'zgarishlar sharoitida keksalarning ijtimoiy faolligi: sotsiogerontologik tahlil" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar ilgari surildi:

1. O'zbekistonda aholi keksayishi izchil demografik yo'nalish sifatida jamiyat rivojlanishiga strategik ta'sir ko'rsatmoqda. 2015–2024-yillarda 60+ va 65+ yosh guruhlari ulushining o'sishi keksa avlodga oid ijtimoiy himoya, sog'liqni saqlash, ta'lim va jamoat xizmatlarini yangi sharoitlarga mos ravishda qayta tashkil etish zaruratini kuchaytiradi. Shu asosda, keksa kishilarni faqat ijtimoiy yordam obyekti sifatida emas, balki jamiyat ijtimoiy kapitali va barqaror rivojlanish resurslarining muhim qismi sifatida qarash zarurati ilmiy jihatdan asoslandi.

2. "Keksa", "qari", "mo'ysafid", "nuroniylar" tushunchalari sotsiogerontologik yondashuv asosida yangicha konseptual talqin etildi. Keksalikning biologik, psixologik va ijtimoiy qirralari ajratib ko'rsatilib, "mo'ysafid" va "nuroniylar" atamaları yosh yoki pensiya holatidan tashqari, ijtimoiy-madaniy maqom, hayotiy tajriba, ma'naviy nufuz va jamoat faolligi bilan bog'liq ijtimoiy kategoriyalar sifatida ilmiy asoslandi. Shuningdek, Sharq va G'arb klassik merosi hamda zamonaviy sotsiogerontologik nazariyalar milliy sharoitga mos uyg'unlashtirildi.

3. O'zbekiston sharoitida keksalarning ijtimoiy faolligini baholash uchun milliy indikatorlar tizimi va kompozit indeks (lokal AAI) ishlab chiqildi. JSST hamda UNECE/EC metodologiyalariga tayangan holda iqtisodiy faollik, jamoat-volontyorlik ishtiroki, norasmiy parvarish, madaniy-ijtimoiy va raqamli ishtirok, shuningdek mustaqil hayot ko'rsatkichlarini qamrab olgan indikatorlar majmuasi taklif etildi. Mazkur tizim keksalar ijtimoiy faolligini shahar-qishloq, gender, ta'lim va daromad darajalari kesimida qiyosiy tahlil qilish imkonini berdi.

4. Empirik natijalar keksalarning ijtimoiy faolligi yuqori darajada differentsiatsiyalanganini ko'rsatdi. Oilaviy munosabatlar, qarindoshchilik aloqalari va mahalliy hamjamiyatdagi norasmiy muloqotda keksalarning ishtiroki nisbatan yuqori bo'lsa-da, rasmiy mehnat bozori, volontyorlik, jamoat organlari faoliyati va raqamli xizmatlarda faollik barqaror emas. Toshkent va yirik shaharlarda faollik yuqoriroq, qishloq hududlarida, past ta'limli va daromadi zaif guruhlarda esa ijtimoiy faollikning bir qator yo'nalishlarida dolzarb bo'shliqlar mavjudligi aniqlandi.

5. Yangi O'zbekistonda keksalarga oid davlat siyosatining normativ-huquqiy bazasi kengayib, faol keksayish uchun muhim institutsional imkoniyatlar yaratdi, biroq natijaga yo'naltirilgan indikatorlar hali to'liq shakllanmagan. Prezident

farmon va qarorlari, hukumat dasturlari keksa avlodni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashni belgilar ekan, asosiy e'tibor ko'p hollarda tadbirlar soni, moddiy yordam hajmi kabi faoliyat ko'rsatkichlariga qaratilgan. Keksalarning mehnat bozoridagi ishtiroki, volontyorlikdagi ulushi, raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi kabi natija va ta'sir ko'rsatkichlarini joriy etish zarurati ilmiy xulosa sifatida asoslandi.

6. Tuman (shahar) doirasida "keksaga mos jamoa" – keksalar uchun qulay muhit va jamoa modeli ishlab chiqilib, mahalla, "Nuroni" tizimi, NNTlar va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar o'rtasida keksa avlod faolligini oshirishga xizmat qiladigan institutsional tizim yaratishga doir ijtimoiy ehtiyoj asoslandi. Bu tizim doirasida subyektlar (mahalla, hokimlik, tibbiyot, ta'lim, NNT, kutubxona, madaniy muassasalar)ning aniq roli, xizmatlar zanjiri ("muammo – aniqlash – yo'naltirish – xizmat – monitoring") va o'zaro muvofiqlashtirish mexanizmi tizimli ifodalandi. Bu yondashuv keksalarga ko'rsatiladigan xizmatlarni ajralgan holda emas, integratsiyalashtirilgan holda tashkil etish zarurligini ko'rsatdi.

7. Avlodlararo birdamlik, keksa-yosh mentorligi va "sotsiomadaniy stabilizator" sifatida keksalarning roli empirik asosda tasdiqlandi. Ota-onalik, bobobuvilik, mahalliy an'analar va ma'naviy merosni uzatish jarayonida keksa avlod ijtimoiy kapitalning muhim tashuvchisi ekanligi ko'rsatildi. "Bir nuroni – o'n yoshga mas'ul", "Keksalar maslahati", "Yosh oilalar maktablari" kabi mexanizmlar orqali keksalarning tavsiyalari va hayotiy tajribasi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va oilaviy nizolarni barvaqt hal qilishda alohida resurs ekanligi aniqlandi.

8. Raqamli tengsizlik keksalarning ijtimoiy faolligidagi yangi stratifikatsiya omillaridan biri sifatida namoyon bo'ldi. Internetdan foydalanmaslik, elektron davlat xizmatlari, onlayn to'lovlar va raqamli muloqot kanallaridan chetda qolish ko'rsatkichlari qishloqda yashayotgan, past ta'limli va daromadi kam keksa shaxslar orasida ancha yuqori ekani ma'lum bo'ldi. Bu esa faol keksayish strategiyalarini raqamli inklyuziya, raqamli savodxonlik kurslari va "raqamli inklyuziya" mikroloiyahalarisiz to'liq amalga oshirib bo'lmashligini ko'rsatdi.

9. Keksalarning mehnat bozoridagi ishtiroki va "kumush bandlik" salohiyatidan yetarlicha foydalanilmayotgani aniqlandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kasbiy tajribasi, malaka va ijtimoiy munosabatlari yuqori bo'lgan nuroniylarni qisman stavkali, masofaviy va moslashuvchan ish formatlariga jalb etish imkoniyatlari katta. Hozirgi sharoitda bu salohiyatning faqat cheklangan qismigina ishga solinayotgani, maxsus mehnat siyosati, HR-strategiyalar va qayta tayyorlash dasturlarini rivojlantirish zarurligi ilmiy xulosa sifatida belgilandi.

10. Ishlab chiqilgan indikatorlar tizimi va monitoring-baholash sxemasi keksalar ijtimoiy faolligini muntazam kuzatish uchun amaliy instrument sifatida taklif etildi. Kompozit indeks, domenlar kesimidagi ko'rsatkichlar, natijadorlik ko'rsatkichlari tizimi va ma'lumotlar oqimi (mahalla – tuman – viloyat – respublika darajalarida) orqali "faol keksayish xaritalari"ni shakllantirish imkoniyati yaratildi. Bu sxema amaldagi axborot tizimlari bilan integratsiyalashtirilganda, keksalarga qaratilgan siyosat va dasturlarning samaradorligini baholashda muhim analitik asos bo'lib xizmat qiladi.

11. Dissertatsiyada ishlab chiqilgan mezo-institutsional model, indikatorlar va intervensiyalar paketi amaliyotga tatbiq etishga moslashtirilgan. Tadqiqot natijalari asosida taklif etilgan mentorlik, volontyorlikni rag'batlantirish, raqamli savodxonlik va qayta tayyorlash yo'nalishidagi pilot loyihalar uchun metodik asos, indikatorlar va hisobdorlik mexanizmlari ishlab chiqildi. Bu ilmiy ishlar natijalarining amaliy ahamiyatini, davlat organlari, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatida qo'llanish imkoniyati keng ekanligini ko'rsatadi.

12. Tadqiqot natijalari kelgusidagi ilmiy izlanishlar va siyosat ishlab chiqish uchun yangi yo'nalishlarni belgilab berdi. Jumladan, keksalarning subyektiv farovonligi, og'ir ijtimoiy xavf guruhlari (yolg'iz, nogironligi bo'lgan, norasmiy mehnat tajribasiga ega keksalar), gender va hududlar kesimidagi chuqur differensiatsiyani o'rganish, intervensiyalarning uzoq muddatli ta'sirini panel tadqiqotlar orqali baholash zarurati aniqlandi. Shu tariqa, dissertatsiyada ilgari surilgan konseptual yondashuv va amaliy modellar O'zbekistonda faol keksayish siyosatini ilm-fanga tayanadigan, barqaror va inklyuziv yo'nalishda davom ettirish uchun mustahkam asos yaratib berdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.04/2025.27.12.S.01.02 ПРИ АКАДЕМИИ
ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ И УПРАВЛЕНИЯ ПРИ
ПРЕЗИДЕНТЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

ХОДЖАЕВ СОБИР ДЖУМАЕВИЧ

**СОЦИАЛЬНАЯ АКТИВНОСТЬ ПОЖИЛЫХ ЛЮДЕЙ В УСЛОВИЯХ
ПЕРЕМЕН В УЗБЕКИСТАНЕ: СОЦИОГЕРОНТОЛОГИЧЕСКИЙ
АНАЛИЗ**

22.00.02 – Социальная структура, социальные институты и образ жизни

АВТОРЕФЕРАТ

докторской диссертации (DSc) по социологическим наукам

Ташкент – 2026

Тема докторской диссертации по социологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2024.3.DSc/S32

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека.

Автореферат диссертации размещен на трёх языках (узбекском, русском и английском (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.fs-ik.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziyo.net).

Научный консультант:

Содикова Шохида Мархабаевна
доктор социологических наук, профессор

Оппоненты:

Шоумаров Гайрат Бахрамович
академик, доктор психологических наук, профессор

Саифназаров Исмаил Саифназарович
доктор философских наук, профессор

Сиетов Азамат Пулатович
доктор социологических наук, профессор

Ведущая организация:

**Центр изучения общественного
мнения «Ижтимоий фикр»**

Защита диссертации состоится «18» августа 2026 г. в 10:00 часов на заседании научного совета DSc.04/2025.27.12.S.01.02 при Академии государственной политики и управления. Адрес: 100066, город Ташкент, улица Ислама Каримова, 45, 2-этаж, конференц-зал № 220. Тел.: (71) 267-05-36, факс: (71) 232-60-47 E-mail: info@dba.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Академии государственной политики и государственного управления (арегистрирована под №386). Адрес: 100066, город Ташкент, улица Ислама Каримова, дом 45. Тел.: (+998 71) 267-05-36, факс: (+998 71) 232-60-47. E-mail: info@dba.uz. Административное здание Академии государственной политики и государственного управления при Президенте Республики Узбекистан, 2 - этаж, 203 - кабинет.

Автореферат диссертации разослан «4» августа 2026 года.
(реестр протокола рассылки № 04/08 от «4» августа 2026 года).

М.Б. Бекмурадов

Председатель Научного совета по
присуждению научных степеней,
д.соц.н., профессор

Б.Х. Каримов

Ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.соц.н., профессор

Т.М. Матибаев

Председатель Научного семинара
при Научном совете по
присуждению научных степеней,
д.соц.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской (DSc) диссертации)

Актуальность и востребованность темы диссертации. Старение населения мира превратилось в устойчивую демографическую тенденцию и требует адаптации систем здравоохранения и социальной защиты каждой страны к новым условиям. Согласно имеющимся данным²⁴, в период с 2015 по 2050 годы доля лиц в возрасте 60 лет и старше в структуре населения мира почти удвоится с 12 % до 22 %. К 2050 году численность населения в возрасте 60 лет и старше достигнет 2,1 млрд человек, при этом не менее двух третей из них будут проживать в странах с низким уровнем дохода. В условиях изменений возрастной структуры населения здоровая и активная жизнедеятельность пожилого поколения, его участие в жизни общества и безопасность рассматриваются в качестве приоритетных задач. С этой точки зрения особую актуальность приобретают международные документы и программы, а также глобальные направления в сфере старения, создание среды, дружественной к пожилым людям, и поддержка долгосрочного ухода.

Ведущими университетами и научно-исследовательскими институтами мира проводятся многочисленные исследования, направленные на повышение качества жизни пожилого поколения. В данном направлении особое внимание уделяется таким приоритетным аспектам, как пожилое поколение и развитие, здоровье и благополучие в пожилом возрасте, формирование поддерживающей среды, здоровое старение, борьба с эйджизмом, развитие сообществ, дружественных к пожилым людям, усиление интегрированной медицинской помощи, ориентированной на человека, обеспечение качественной системы долгосрочного ухода, использование Индекса активного старения как важного инструмента оценки активного старения, участие пожилых людей на рынке труда, их активность в общественной и добровольческой деятельности, вклад в домашнее хозяйство и неформальный уход, а также комплексное изучение возможностей самостоятельной и безопасной жизни. Кроме того, актуальное значение имеет исследование вопросов целевого ориентирования решений, касающихся пожилых людей, в гендерном разрезе, а также адресного распределения ресурсов.

В нашей стране в условиях роста доли пожилого населения особое внимание уделяется развитию инфраструктуры социальных услуг, системы здравоохранения и среды, дружественной к пожилым людям. Как отмечено: “Мы продолжим расширять охват социальными услугами нурониев, одиноких пожилых людей, лиц с инвалидностью и слоёв населения, нуждающихся в особом внимании. Будем регулярно повышать размеры заработной платы, пенсий, пособий и стипендий”²⁵. Данные меры направлены на координацию социальных услуг, системы здравоохранения и инфраструктуры ухода за пожилым поколением, поддержку пожилых людей, повышение их социально-экономической активности, а также вовлечение их знаний и жизненного опыта в общественную жизнь. Вместе с тем формирование системы индикаторов и

²⁴ Ageing and health. <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/ageing-and-health>

²⁵ «Обсуждены меры по внедрению в жизнь обновленной Конституции». <https://president.uz/ru/lists/view/6275>

практики мониторинга, адаптированных к национальным условиям, в частности локализация методологических подходов Индекса активного старения, а также проведение социологических исследований, направленных на дальнейшее совершенствование данной системы, приобретают важное научно-практическое значение.

Данная диссертационная работа в определённой степени служит реализации задач, обозначенных в Указах Президента Республики Узбекистан от 1 марта 2022 года № УП-81 «О мерах по совершенствованию системы работы с семьями и женщинами, поддержки махалли и старшего поколения», от 11 сентября 2023 года № УП-158 «О Стратегии «Узбекистан – 2030», а также в постановлениях Президента Республики Узбекистан от 15 марта 2022 года № ПП-167 «О дополнительных мерах по всесторонней поддержке и повышению уровня жизни старшего поколения», от 11 марта 2023 года № ПП-92 «О дополнительных мерах по всесторонней поддержке и повышению социальной активности представителей старшего поколения», от 27 декабря 2023 года № ПП-410 «О мерах по совершенствованию системы оказания социальных услуг и помощи престарелым и лицам с инвалидностью, нуждающимся в постороннем уходе», а также в других нормативно-правовых актах, относящихся к теме исследования.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан. Диссертационная работа выполнена в рамках приоритетных направлений развития науки и технологий Республики Узбекистан по научно-исследовательской программе I «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического правового общества, формирование инновационной экономики».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации²⁶.

На международном уровне широко проводятся научные исследования, посвящённые социальной активности пожилых людей, концепции «активного старения» и участию старшего поколения в жизни общества. В этом процессе важное место занимают Всемирная организация здравоохранения (ВОЗ), Европейская экономическая комиссия ООН (ЕЭК ООН), Объединённый исследовательский центр Европейской комиссии (JRC), Организация экономического сотрудничества и развития (ОЭСР), а также университеты и научные центры, в частности Центр исследований старения при Саутгемптонском университете (Великобритания), Национальный институт лечения и ухода за пожилыми людьми в Италии (INRCA, IRCCS), Федеральная ассоциация организаций пожилых граждан Германии (BAGSO), а в Японии - Центры трудовых ресурсов пожилых людей (Silver Human Resource Centers - SHRC) и Японская организация по поддержке занятости пожилых людей, лиц с инвалидностью и ищущих работу (Japan Organization for Employment of the Elderly, Persons with Disabilities and Job Seekers - JEED).

²⁶Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации осуществлён на основе следующих источников: <https://iris.who.int/handle/10665/67215>, <https://unece.org/population/active-ageing-index>, https://joint-research-centre.ec.europa.eu/system/files/2019-03/3_zaidi_feb11_2019_active_ageing_index_0.pdf, https://www.oecd.org/en/publications/working-better-with-age_c4d4f66a-en.html, <https://www.bagso.de/english/>, https://www.jeed.go.jp/english/human_resources/index.html

В результате исследований, проводимых в мире по вопросам социальной активности пожилых людей, был получен ряд научных результатов. В частности, в рамках концепции «активного старения» разработаны программы, направленные на повышение качества жизни пожилого поколения посредством поддержки здоровья, участия и безопасности (ВОЗ); обоснована оценка занятости пожилых людей, их участия в добровольческом труде, общественной деятельности, неформальном уходе, гражданской активности и самостоятельной жизни посредством системы индикаторов Индекса активного старения в разрезе стран (UNECE/JRC); доказано, что добровольческий труд и общественная активность пожилого поколения способствуют улучшению показателей психического и физического здоровья, когнитивных функций и общего благополучия, а также что развитие инфраструктуры, транспорта, социальных услуг и общественной среды, дружественных к пожилым людям, способствует расширению их участия на основе подходов Индекса активного старения (ВОЗ/UNECE); разработаны меры по повышению занятости пожилых людей, включая адаптацию рабочих мест, снижение дискриминации, переподготовку и организацию курсов непрерывного обучения (OECD); центры трудовых ресурсов для пожилых людей (SHRC) признаны моделью возвращения пожилых людей к общественной активности через частичную и облегчённую трудовую деятельность, а также укрепления у них чувства социальной значимости (JEED); стимулировано участие пожилого поколения посредством защиты их прав и интересов, развития добровольчества и расширения сетей наставничества «пожилые - молодёжь» (BAGSO).

В мире исследования социальной активности пожилых людей проводятся по ряду приоритетных направлений, в том числе: совершенствование индикаторов и методологии оценки социальной активности пожилых людей; изучение добровольческого труда, гражданской активности и участия пожилого поколения в общественной жизни; развитие сообществ, социальных услуг, транспорта, цифровых сервисов и инфраструктуры, дружественных к пожилым людям; развитие программ переподготовки пожилых людей, адаптированной занятости, межпоколенческого сотрудничества и наставничества; анализ уровня социальной активности пожилых людей в территориальном, гендерном и социально-демографическом разрезе.

Степень изученности проблемы. В восточной социально-философской мысли особое внимание уделялось старости, преемственности поколений и роли жизненного опыта в развитии общества. В частности, Абу Наср Фараби в произведении «Город добродетельных людей» рассматривал духовно-нравственную гармонию между различными поколениями, в том числе между молодыми и пожилыми людьми, как важный фактор социальной стабильности²⁷. Юсуф Хос Хожиб в «Кутадгу билиг» оценивал мудрость, жизненный опыт и наставнический потенциал пожилых людей как значимую ценность в государственном управлении и обеспечении социального

²⁷ Форобий, Абу Наср. Фозил шаҳар аҳолиси ҳақида. – Тошкент: Фан, 1993. – 220 б

порядка²⁸. Ибн Халдун, анализируя в «Мукаддиме» процессы смены поколений, социального опыта и исторического развития, теоретически обосновал социальное значение старения и пожилого возраста в жизни общества²⁹.

